O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 37.014.5:37.01:37.091.3:316.77

Baxromjon B. BEKTASHEV,
O‘qituvchi, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O‘zbekiston
E-mail: bahrombek781@gmail.com ORCID:0009-0000-7032-4308

ADU professori, DSc D.Samatov taqrizi asosida

PISA BAHOLASH TIZIMI DOIRASIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING FALSAFIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Annatatsiya

Ushbu ilmiy maqolada global miqyosda ta'lim sifatini baholashda keng qo'llanilayotgan PISA (Programme for International Student Assessment) baholash tizimining mohiyati, maqsadlari va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. PISA dasturi o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va funksional savodxonlik darajasini baholashga qaratilgani bilan ajralib turadi. Ushbu jihatlar bugungi kunda ta’lim sohasida global o‘zgarishlar fonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida PISA dasturining joriy etilishi va bu jarayonning nazariy-metodologik asoslari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: PISA baholash tizimi, xalqaro ta’lim monitoringi, funksional savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim sifatini baholash, xalqaro standartlar, milliy ta’lim tizimi.

ФИЛОСОФСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В РАМКАХ СИСТЕМЫ ОЦЕНКИ PISA

Аннотация

В данной научной статье подробно анализируется сущность, цели и значение системы оценки PISA (Programme for International Student Assessment), широко используемой в оценке качества образования в глобальном масштабе, в современном образовании. Программа PISA отличается тем, что ориентирована не только на теоретические знания учащихся, но и на умение применять их в реальных жизненных ситуациях, критическое мышление, решение проблем и оценку уровня функциональной грамотности. Эти аспекты сегодня приобретают особое значение на фоне глобальных изменений в сфере образования. В статье также глубоко анализируется внедрение программы PISA и теоретико-методологические основы этого процесса в контексте реформ, проводимых в сфере образования в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Система оценки PISA, международный мониторинг образования, функциональная грамотность, компетентностный подход, оценка качества образования, международные стандарты, национальная система образования.

PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION WITHIN THE PISA ASSESSMENT SYSTEM

Annotation

This scientific article thoroughly analyzes the essence, objectives, and significance of the PISA (Programme for International Student Assessment) assessment system, which is widely used in assessing the quality of education globally. The PISA program is distinguished by its focus on assessing not only students' theoretical knowledge, but also their ability to apply it in real-life situations, critical thinking, problem-solving, and the level of functional literacy. These aspects are of particular importance today against the backdrop of global changes in the field of education. The article also provides an in-depth analysis of the implementation of the PISA program and the theoretical and methodological foundations of this process in the context of ongoing reforms in the field of education in the Republic of Uzbekistan.

Key words: PISA assessment system, international education monitoring, functional literacy, competency-based approach, education quality assessment, international standards, national education system.

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan jamiki islohotlar barkamol avlod tarbiyasi, yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Bunday sa’y harakatlar davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi yoshlarga katta imkoniyatlarni yaratib bermoqda Mamlakatimizda ta’lim sohasiga oid asosiy huquqiy hujjat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’limning shaxs hayotidagi o‘rni bir necha jihatda ko‘zga tashlanadi. Eng muhimi, kishi o‘qish va o‘rganish orqali o‘z ustida mustaqil ishlash, o‘zini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Bu jarayonda uning olamga bo‘lgan qarashlari kengayadi, mulohaza yuritish ko‘nikmalari chuqurlashadi, natijada hayotiy faoliyati yaratuvchanlik mazmuni bilan to‘ladi.

Ta’lim tizimi taraqqiyotini falsafiy tahlil qilish, uning nazariy asoslari bilan amaliy natijalarini bir butun holda ko‘rib chiqishni talab etadi. Bu borada jahon tajribasida keng e’tirof topgan bir qator yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularni to‘rt asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish zamon talablariga moslashuv bilan bog‘liq. Bugungi dunyo shiddat bilan o‘zgarib, uning chegaralari kengayib borayotgan ekan, ta’lim jamiyatni chuqur o‘zgarishlarga tayyorlashi, aholining esa har tomonlama yetuk bo‘lib shakllanishiga sharoit yaratishi kerak.

Ikkinchi yo‘nalish globallashuv jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Mamlakatlararo ilmiy va madaniy aloqalarga

ehtiyoj ortib borayotgan, turli qarash va qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish zaruriyati kuchayayotgan hozirgi sharoitda ta’lim jarayonlari yanada faol va ochiq bo‘lishi talab etiladi.

Uchinchi yo‘nalish qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan. Bunda yoshlarni butun insoniyat tomonidan tan olingan qadriyatlar asosida tarbiyalash, ta’limda xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydigan qarashlarni tarkib toptirish, shu bilan birga har bir yigit-qizning o‘z salohiyati, orzu-intilishlari va ehtiyojlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga imkon berish ko‘zda tutiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish demokratik jarayonlar bilan bevosita aloqador. Jamiyatda demokratik tamoyillar mustahkamlanib borgani sari turli fikr va qarashlarning erkin mavjud bo‘lishi, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarning tezlashishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tizimida esa bu holat sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirish, yosh avlodda fuqarolik burchini his qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish tuyg‘usini kuchaytirish orqali namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ta’limni yangilash jarayoni bir necha tayanch tamoyillarga asoslanadi. Ular orasida jamiyatdagi raqobat muhiti, ilg‘or g‘oyalarga ehtiyojning ortib borishi hamda davlat va fuqaro manfaatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish alohida o‘rin tutadi. Bu tamoyillarning dolzarbligi so‘nggi o‘n yilliklarda yuz bergan global o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Xususan, G.Sultonova insoniyat sivilizatsiyasining postindustrial bosqichga o‘tishi, axborot oqimining chegara bilmay qolishi, raqamli texnologiyalarning hayotning barcha sohalariga kirib kelishi va turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarning faollashuvi kishilarning turmush tarzi, ilmiy izlanishlari va fikrlash uslubini tubdan o‘zgartirib yuborganini qayd etadi. Olimaning fikricha, falsafa va fanlarning bir tomondan tarmoqlanib, ikkinchi tomondan o‘zaro yaqinlashib borishi yangi ilmiy paradigmalarni vujudga keltirmoqda hamda tafakkurning sifat jihatdan yangi shaklini shakllantirmoqda [2].

Ta’lim jamiyat ijtimoiy tuzilmasining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgani sababli, jamiyat haqidagi har qanday nazariy qarash o‘z maqsadiga muvofiq ravishda ta’lim mazmuniga ham ta’sir ko‘rsatadi va undagi jarayonlarning g‘oyaviy asosini belgilaydi. Bu borada falsafiy antropologiyaning o‘rni ayniqsa sezilarli. Ta’lim tarixida vujudga kelgan turli modellar, jumladan, erkin ta’lim g‘oyalaridan tortib shaxsni markazga qo‘yuvchi zamonaviy yondashuvlargacha, inson mohiyatiga oid falsafiy qarashlar asosida shakllangan. Demak, ta’lim amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan har bir tashabbus zamirida falsafiy mulohaza yotadi. Aynan shu mulohazalar pirovardida ta’lim muassasalarida yangi tadqiqotlar o‘tkazilishiga, zamonaviy texnologiyalar va o‘qitish metodikalarining joriy etilishiga turtki beradi.

Sinergetikaning ijtimoiy fanlardagi o‘rni haqida faylasuf A.Saytqosimov ham muhim fikrlarni ilgari surgan. Uning qarashlariga ko‘ra, o‘z-o‘zini tashkil etish g‘oyasi jamiyatda kechayotgan chigal ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ular asosida zamonaviy nazariyalarni yaratishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Qolaversa, bu yondashuv ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etishda insonning ijodkorlik salohiyatini yuzaga chiqaruvchi falsafiy imkoniyatlarni ham qamrab oladi [5].

Yuqoridagi nazariy asoslarni hamda ta’limning falsafiy mohiyatini tahlil qilish natijasida biz ushbu tizimni takomillashtirishga xizmat qiladigan quyidagi ijtimoiy-falsafiy mezonlarni ishlab chiqdik:

inson omilining aks etishi – ta’lim jamiyat hayotining muhim sohasi sifatida insonning ijtimoiy o‘rnini ko‘rsatib beradi, bu esa, avvalo, ustoz va shogird o‘rtasidagi muloqotda o‘z ifodasini topadi;

manfaatlar muvozanati – ta’lim o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va jamiyat kabi barcha ishtirokchilar manfaatlarini o‘zaro kelishtirishga xizmat qiladi;

ijtimoiy-huquqiy kafolat – ta’lim fuqarolarning bilim olish va tarbiya bilan bog‘liq ijtimoiy hamda huquqiy ehtiyojlarini ta’minlaydigan imkoniyatlar, majburiyatlar va shart-sharoitlar majmui sifatida yuzaga chiqadi.

Har qanday jamiyat hayoti va taraqqiyotida ta’lim-tarbiya hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra dunyodagi qaysi xalq yoki mamlakat hayotida ta’lim-tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, shu xalq va mamlakat yuksak taraqqiyot bosqichlariga erishishi, aks holda esa qoloqlikda, har jihatdan qashshoq turmush kechirishi muqarrar. Shu nuqtai nazardan keyingi yillarda O‘zbekistonda mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilib, bu boradagi ishlarni zamon talablari darajasida rivojlantirishga alohida e’tibor berilayotgani mamlakat taraqqiyotini ta’minlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni paytda mazkur sohadagi davlat siyosatining mazmun-mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, bu boradagi dolzarb vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning qator asarlarida, shuningdek u kishining tashabbusi va bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan tegishli huquqiy-meyoriy hujjatlarda aniq-ravshan ko‘rsatib berilgan.

O‘zbekistondagi ta’lim-tarbiya muassasalariga jamiyatdagi yondoshuv va munosabatlar tubdan o‘zgarishi, masalan, chin musulmon masjidlarga qanday munosabatda bo‘lsa, jamiyatda yashayotgan barcha kishilar ta’lim-tarbiya muassasalariga nisbatan ana shunday munosabatda bo‘lmog‘i lozim. YA’ni, masjid chin musulmonlar uchun qanchalik muqaddas hisoblansa, ta’lim-tarbiya muassasalari jamiyatda yashayotgan barcha odamlar uchun ana shu darajada muqaddas sanalishi lozim. Chunonchi, har bir aqli raso inson yoshi, irqi, millati, dini, jinsi yoki ijtimoiy-siyosiy mavqeyi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar diniy muassasalarga nisbatan hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo‘ladi, ularga muqaddas dargoh sifatida qaraydi va qadrlaydi. Bu o‘rinda masjidda xizmat qilayotgan imom va boshqa xodimlarning sifati va saviyasi bo‘yicha o‘ziga xos talablar bo‘lgani kabi, ta’lim-tarbiya muassasalarida ishlayotgan pedagog kadrlar sifati va saviyasi ham tegishli talablar darajasida bo‘lishi zarur, albatta.

Ayni paytda ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlashda mazkur tizimga daxldor obyekt va subyektlar o‘rtasidagi aloqadorliklar, ya’ni ta’lim oluvchilar bilan ta’lim beruvchilar, shuningdek jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlar, jumladan ta’lim muassasalari bilan ular joylashgan hududda yashayayotgan aholi o‘rtasidagi o‘ziga xos ijtimoiy yondoshuv va munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Bunda har ikki tomonning o‘z hayoti va faoliyatida ta’lim-tarbiya jarayonidagi ijtimoiy o‘rni, roli va vazifalari mavjud bo‘lib, ular yanada konkretlashishi lozim, ya’ni: butun jamiyat va undagi har bir kishida o‘zlari yashayotgan hududdagi ta’lim-tarbiya muassasalari faoliyatiga har jihatdan mas’ullik, ularning moddiy va ma’naviy holati uchun shaxsiy javobgarlik his qilinadigan muhit, shart sharoit yaratilishi kerak. Chunki ta’lim-tarbiya va unga tegishli muassasalar faoliyati butun jamiyat va undagi har bir kishi hayotida taqdirshumul o‘rin tutar ekan, ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash barcha kishilarning fuqarolik burchi, vazifasi bo‘lishi zarur. Aslida har bir ijtimoiy makon va tarixiy zamondagi mavjud shart-sharoit va imkoniyatlar bilan belgilanadigan ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga ko‘ra, har bir oila, mahalla yoki jamiyatdagi ta’lim-tarbiya bo‘yicha ijtimoiyiqtisodiy mas’uliyat, moddiy va ma’naviy javobgarlik, avvalo o‘sha jamiyatdagi konkret oila, mahalla, xalq zimmasida bo‘lishi zarur. Qolaversa bozor

iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan ijtimoiy tuzum hukm surgan jamiyatda “bepul ta’lim” tushunchasi o‘ta nisbiy, uning amal qilishi esa mazkur tuzum xarakteriga zid mazmun kasb etadi. Jahon xalqlarining tarixi va bugungi hayotida bunga misollar juda ko‘p. Jumladan ta’lim-tarbiya ta’minotiga jamiyat a’zolarining shaxsiy javobgarligi o‘zbek xalqi hayotida ham alohida ijtimoiy mas’uliyat sifatida amal qilganki, buni XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda faoliyat olib borgan Jadidchilik harakati yetakchilaridan biri, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi fikrlarida ham yaqqol ko‘rish mumkin: “Ulamo tarbiyaxonasi maktab va madrasalardur, agarda o‘shal maktab va madrasa muallim va mudarrislari olim bo‘lsa va shogirdlarig‘a ko‘ngi ilan ta’lim bersa, albatta, ilm hosil qilinur. Agarda muallimni o‘zi hozirgi aksar maktabdor va mudarrislardek kamhavsala yoinki kamilm bo‘lsa, ani shogirdlari nodon qolur. Muallimni(ng) nodonligi va yo kamhavsalalalik aybini mahalla xalqig‘a ortdurmak kerak, chunki alar tahqiq qilmaydurlarki, muallimni ilmi bor yo yo‘q bo‘lg‘onda na o‘qitadur, yana xalqg‘a boshqa yukni ortmoq kerakki, ul maktabdorlarg‘a muvofiqi zamon idora berib, ani maktabdin boshqa ishg‘a mutasaddi bo‘lishg‘a qo‘ymaslik va buyurmaslikdur. Maktabdorlarni avqoti o‘tmagan uchun to‘y va ta’ziyag‘a yurub va mahalla xalqini boshqa xizmat va o‘rinsiz mulozamatlarig‘a mashg‘ul bo‘lub, bolalar umrini zoe bo‘lishig‘a sabab bulur... Bir muallimni(ng) ilmsizligi va, yoinki, mahalla xalqi ila darbadar yurgani va maoshsizligi har bir mahallani o‘n sanadin so‘ngra kamolg‘a yetadurgan odamlarini hayvondin ham tarbiyatsiz va zararlik bo‘lishig‘a sabab bo‘lur. Bu ayb muallimniki emas, mahalla va guzar xalqini(ng) aybidur”[7].

Fikrimizcha, hozirgi ta’lim-tarbiya jarayonlariga tegishli qator muammolarni hal qilishda ta’lim-tarbiyadagi majburiylik prinsipining amal qilishiga jiddiy e’tibor qaratish, bunda uning mavjud ijtimoiy-siyosiy, huquqiy asoslari hamda milliy pedagogik masalalarini atroflicha tahlil va tahrir qilish maqsadga muvofiq. YA’ni birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: “Modomiki, yoshlarni fikrlashga o‘rgatish, tafakkur tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, biz muhim bir nuqtani ham nazardan qochirmasligimiz zarur. Fikrimni ochiqroq aytadigan bo‘lsam, har qanday tarbiyada, hatto yuksak rivojlangan demokratik tarbiya tizimida ham ozmi-ko‘pmi bajarilishi shart bo‘lgan belgilar mavjud. Masalan, bolani go‘dakligidan yuz-qo‘lini yuvishga o‘rgatmasangiz, kerak bo‘lsa, majbur qilmasangiz, yuvuqsiz holda dasturxon atrofiga o‘tirish unga odat bo‘lib qoladi” [8]. Shundan kelib chiqib, yoshlarni o‘qib-o‘rganish va yetuk inson bo‘lish yo‘lida mehnat qilishga majburlash har qanday ijtimoiy makon va tarixiy zamondagi mavjud hayot talabi ekanligini e’tirof etish zarur. Qolaversa, bizdagi ta’lim-tarbiyada majburiylik prinsipini qo‘llash, nafaqat bugungi hayot talabi, ayni paytda u har bir jamiyatning o‘z a’zolarida insoniy sifatlarni shakllantirish bo‘yicha obyektiv hayotiy zaruriyat va ijtimoiy majburiyat bilan bog‘liq muhim aksiologik tamoyil hamdir. Negaki, yoshlar tarbiyasida va umuman har qanday insonning inson sifatida hayot kechirishida mehnat hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra, maymunning odamga aylanishida mehnatning roli haqidagi qarashlar asossiz emas. Masalan, agar har jihatdan yaxshi, hatto avliyo sifatiga ega odam ham bekorchi bo‘lib, hech qanday mehnat qilmaydigan holatga tushirilsa, u albatta buziladi, undagi insoniy sifatlar zavol topadi. O‘qish, o‘rganish ham – mehnat, u – ham aqliy, ham jismoniy mehnatdir. Binobarin, ta’lim-tarbiya jarayonlarida yoshlarga aqliy va jismoniy mehnat tarbiyasi, tartib-intizom, shu bilan birga, halol mehnat orqali pul topish madaniyati o‘rgatilishi o‘ta zarur. Umuman, bizdagi ta’lim-tarbiyadagi boshlang‘ich asosiy ijtimoiyfalsafiy tamoyil, bu o‘g‘il bolani – erkak, qiz bolani esa ayol – ona qilib tarbiyalashdir. YA’ni o‘g‘il bolalarda haqiqiy erkaklik, qiz bolalarda esa aziz va mukarram Onalarga, muqaddas Ayollarga xos onalik xislatlarini shakllantirishga milliy ta’lim-tarbiyaning bosh tamoyili sifatida qaralishi zarur. Qolaversa, hozir bizdagi ta’lim-tarbiyada xalqimizning o‘ziga xos ijtimoiy hayoti, madaniyati va mentalitetiga mos zamonaviy usul yondoshuvlarni ishlab chiqish va qo‘llash, xususan, bunda har ikki jinsdagi yosh avlodni ham jismoniy, ham ruhiy-ma’naviy jihatdan o‘z bioijtimoiy mohiyatiga mos ravishda tarbiyalash zaruriyati ortib bormoqda. Bizningcha ushbu masalani samarali hal qilish uchun, albatta keng ilmiy-falsafiy tadqiqotlar olib borishga, shuningdek, umuman yurtimizdagi barcha yoshlarni bolalikdan qat’iy tartib-intizom va mehnat madaniyatiga o‘rgatishga jiddiy e’tibor qaratish, bu o‘rinda yoshlarni, ayniqsa balog‘atga yetgan o‘g‘il bolalarni muddatli haqiqiy majburiy harbiy xizmat o‘tashga jalb qilish maqsadga muvofiq. Chunki aynan haqiqiy yalpi majburiy harbiy xizmat bolalarda chin erkaklik sifatlarini kamol topishiga, har qanday inson hayoti va turmushi uchun zarur bo‘lgan tartib-intizom, sabr-matonat, sadoqat, g‘urur, or-nomus va yuksak Vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllanib rivojlanishiga samarali ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, keyingi paytlarda mintaqamizdagi ba’zi mamlakatlarda majburiy harbiy xizmatni bekor qilish haqida muhokamalar bo‘lmoqdaki, buni jiddiy o‘ylab ko‘rish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Лебедев С. Проблема истины в естествознании и социально-гуманитарных науках. //Философия социальных и гуманитарных наук: Учебное пособие для вузов. -М.: Академический проект, 2006. - С.11.
2. Султонова Г. Проблемы идеологического наследования и инноваций в форме постнеклассического научного мышления. Автореферат диссертации доктора философских наук (PhD) по философским наукам. Самарканд, 2018. –с.7
3. 3 К.Назаров. Философия познания. –Ташкент, Университет, 2005. –с. 219.
4. Гессен С. И. Основы педагогики. Введение в прикладную философию / Отв. ред. и сост. П. В. Алексеев. - М.: "Школа - Пресс", 1995. - с. 448
5. Сайткосимов А. Законы инновационного развития социальной сферы в строительстве гражданского общества. –Ташкент, Тафаккур, 2019 -с. 135.
6. Мирзиёев Ш. Мактаб таълимини ривожлантириш умумхалқ ҳаракатига айланиши зарур. // http://uza.uz/oz/politics/maktab-talimini-rivozhlantirish umumkhal-arakatiga-aylanishi-23-08-2019
7. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Ислоҳи таҳсил. // Танланган асарлар. I Жилд. -Т.: “Академнашр”, 2018. –Б. 289.
8. Каримов И. Ҳушёрликка даъват. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги мухбирининг саволларига жавоблар // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Том 8. –Т.:Ўзбекистон, 2000. -Б. 30.
9. Xolbekov A. A. Ta’lim sifatini baholash va xalqaro reyting tizimlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
10. Turdaliyeva G. Sh. Zamonaviy ta’lim jarayonida baholash tizimlarini takomillashtirish metodikasi. – Toshkent, 2020.
11. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. PISA xalqaro tadqiqotlariga tayyorgarlik bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish agentligi, 2022.
12. Rasulova N. N. Ta’lim sifatini oshirishda kompetensiyaviy yondashuvning o‘rni. // Pedagogik ta’lim jurnali. – 2022. – №3.
13. Abdullayeva D. M. PISA dasturi: o‘quvchilarning funksional savodxonligini baholash mexanizmlari. – Toshkent: TDPU, 2023.